

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola dizayn texnikasini yaratish uchun grafik muhandislik va dizaynni birlashtirgan holda yozilgan. Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi talabalari uchun juda yaxshi dizayn texnikasi haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена созданию листов дизайна по средствам объединения графического инжиниринга и дизайна. Исследуемая техника дизайна является эффективным для специальности студентов изобразительного искусства инженерной графики.

SUMMARY

The given article deals with creating design methods via canpounding graphic engineering and design tools. Investigated technique is effective for students of speciality fine art and engineer graphics.

1-SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSIGIDAGI "MENING OILAM" BO'LIMI USTIDA ISHLASH METODI

M.Hazratqulov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Samarqand davlat universiteti*

Tayanch so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi, darslik, dars, metod.

Ключевые слова: начальное образование, ученик, учитель, учебник, урок, метод.

Key words: primary education, student, teacher, textbook, lesson, method.

1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligidagi "Mening oilam" bo'limi oila a'zolari, qavm-qarindoshlarning nomlarini bilish bilan boshlanadi. Bola endi tilni o'rgana boshlagan paytda eng ko'p ishlatadigan so'zlari ham "ota", "ona", "aka" kabi qarindoshlik so'zlari bo'ladi. Atrof-olam haqida bolaga ilk taassurot va bilimlarni beradigan kishilar ham qarindoshlari hisoblanadi. Bola o'ziga ilk davrlardan tanish so'zlarni o'qib:

1) o'zi uchun anchayin tanish va qadrli so'zlarni takrorlaydi;

2) ma'lum sabablarga ko'ra o'rgangan sheva so'zlarni me'yorlashtiradi;

3) Ularning qiladigan ishlari bilan tanishib bilimi oshadi;


4) o'z oila a'zolariga nisbatan yaqinlik his qiladi.



Shuningdek, ushbu bo'limda "Hoshimjonning oilasi" matni berilgan bo'lib, bu matn tahlili orqali X.To'xtaboyevning "Sariq devning o'limi" romani qahramonlari bilan qisman tanishadilar. Ushbu asar asosida ishlangan badiiy film o'quvchilar o'rtasida muhokama qilinib, savol-javob o'tkazilishi ham foydadan holi bo'lmaydi.

Filmdagi qiziqarli voqealar, sarguzashtlar o'quvchilarning aytib berish istagini kuchaytirishi, ularda tasavvurlarida qolgan voqealarni bo'lishishni xohlashlari va aytib berishlari nutqiy imkoniyatlari va ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Darslikdagi matn asosida berilgan savollarga javob topish orqali o'quvchilar asar haqida yanada to'liqroq ma'lumotga ega bo'lishadi. Shuningdek, o'qituvchi yordamida o'quvchilar traktorchilik, shifokorlik va boshqa bir qancha kasblar yuzasidan ham suhbat tashkil qilishlari mumkin. Suhbat o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib, yuqorida aytilgan kasblarning foydali, mazmunli, qiziqarli tomonlari haqida bo'lishi kerak.




"Ular sizga kim?" mavzusidagi topshiriq turida o'quvchilar dastlab, rasmda ko'rsatilgan kishilarning qarindoshlik nuqtayi nazaridan nomini topishadi, so'ng o'zlari bilan bog'lik kishilarni ham xuddi shunday tartib asosida aytib berishlari mumkin.

"Ular haqida nimalarni bilasiz?" topshirig'ida o'quvchilar asar qahramonlari haqida ikkitadan ma'lumot aytadilar. Albatta, o'quvchilarning ma'lumotlari bir xil bo'lmaydi. Bu usul o'quvchilarning asar qahramonlari haqida yanada ko'proq bilimga ega bo'lishlariga yordam beradi.

"Qoida bilan tanishning" belgisi ostida kishilarning ism va familiyasi har doim bosh harf bilan yozilishi haqidagi ma'lumot o'quvchilarning grammatik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu grammatik qoidani mustahkamlash uchun bo'limning 4-topshirig'ida Hoshimjonning hikoyasidan yuqoridagi qoidaga mos keluvchi so'zlarni topib yozishlik aytiladi. O'quvchilar matn asosida ishlash bilan birga bosh harf bilan boshlanadigan so'zlarni ajratadilar. O'quvchilarning xotirasida kishilarning nomlari doimo bosh harf bilan yozilishi haqidagi ma'lumot saqlanib qoladi.

X.Komilov qalamiga mansub "Mehribon kelinoyi" she'ri orqali o'quvchilar dangasa o'quvchining maqtanchoqligi va dangasaligi sabablarini bilib olishadi. Bu she'r dastlab o'ituvchi tomonidan ifodali o'qib berilishi, keyin biror o'quvchiga o'qitilishi sh'erdagi obrazlarning o'quvchilarga aniqroq yetib borishini ta'minlaydi.

Keyin o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan qayta hikoyalash tarzida uning mazmuni aniqlashtiriladi. Savollardan foydalanib suhbat tashkil etiladi. Suhbatda darslikda berilgan savollarga javob topiladi.



Ushbu savollarga har bir o'quvchining o'z qarashlari bo'ladi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarning har biridan fikrini aytishga imkoniyat qilib berishi lozim. Savol-javob asosida tashkil etilgan suhbatda mavzuni ko'proq o'quvchilarni o'ylantiradigan, fikrlashga majbur qiladigan savollarga qaratish ularning mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantiradi. "Sizningcha, bu bola maktabda qanday bahoga o'qiydi?", "O'zining uy vazifasini boshqalarga bajaritirishga qanday qaraysiz?" kabi o'quvchilarni hayot tarsi bilan bog'liq savollar atrofida ko'proq muhokama qilish mumkin.

Beshinchi va oltinchi topshiriqlar yozuv bilan bog'liq bo'lib o'quvchilar sh'erdagi voqealar ketma-ketligini rasmdagi tasvirlar orqali aniqlashadilar va harflar tartibi asosida yozadilar. Sh'erdagi ohangi bir-biriga yaqin so'zlarni topib, ularni ham mashq daftarlariga yozib oladilar. Ohangi bir-biriga yaqin so'zlarni topishda o'qituvchining yordami so'zlarni topib ko'rsatish emas, qanday so'zlar ohang jihatidan yaqin so'zlar ekanini tushuntirishi va o'quvchilar tushunganlari asosida topshiriqni bajarishlari lozim.

"Rasmga qarang" belgisi ostida o'quvchilardan rasmdagi tasvir asosida o'qituvchining savollariga javob berish so'ralgan. O'qituvchining savollari quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Ularning sizga kim ekanligini ayting.
3. Bobo va nabira nima haqida suhbatlashyapti?
4. Sizningcha buvi nabirasiga nima haqida gapirayotgan bo'lishi mumkin?
5. Rasmdagi bolaning dadasi ayni paytda nima ish bilan shug'ullanayapti?
6. Bolaning oyisi nima ish qilyapti?
7. Taom tayyorlash va pazandalik ishlarini nima sababdan onalarimiz va opalarimiz bajaradi deb o'ylaysiz?
8. Rasmda tabiatga oid qanday tasvirlarni ko'ryapsiz?
9. Sizningcha hozir qanday fasl?
10. Rasmda ob-havoning holati qanday?

Adabiyotlar

1. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang'ich ta'limda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. SamDU. 2019, 350-b.
2. Husanboyeva Q., Hazratqulov M. Sinfdagi o'qish metodikasi. O'quv qo'llanma. SamDU. 2020, 156-b.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 1-sinf uchun. I. Azimova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021, 104-b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi [Matn]: 1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma I. Azimova [va boshq.]. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. 128-b.

Boshlang'ich ta'limni to'g'ri tashkil etish bu jarayonning o'quvchilar ishtirokida o'qituvchi tomonidan emas, balki o'quvchilarning o'zlari tomonidan o'qituvchi ishtirokida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu asosga qurilgan ushbu maqolada suhbat asosida dars tashkil etish metodlari ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ

РЕЗЮМЕ

Правильная организация начального обучения означает, что процесс осуществляется самими учащимися, а не учителем, при участии учителя. В основу данной статьи положены методы организации уроков на основе бесед.

SUMMARY

Proper organization of primary education means that the process is carried out by the students themselves, not by the teacher, with the participation of the teacher. This article is based on the methods of organizing lessons focusing on conversations.

MEKTEPLERDE ATOM FIZIKASI BÓLIMIN OQÍTÍWDÍ JETILISTIRIW JOLLARÍ (Mektep fizika mu'allimlerine metodikalik járdem)

A.J. Jumamuratov – awıl xojalıǵı ilimleri doktori, docent

F.K. Kalilaev – óz betinshe izleniwshi

Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Tayanch so'zlar: ta'lim texnologiyasi, rejalashtirilgan bloklar, Tomson modeli, Bor postulatlari, Frank Gerts tajribasi. Shtern-Gerlax tajribasi, spin.

Ключевые слова: технология обучения, плановые блоки, модель Томсона, постулаты Бора, эксперимент Франка Герца. Эксперимент Штерна-Герлаха, спин.

Key words: learning technology, planned blocks, Thomson model, Boron postulates, Frank Hertz experiment. Stern-Gerlax experiment, spin.

Tálim texnologiyası-bul bilim beriw processinde bilim beriwshi hám bilim alıwshınıń birgeliktegi islesiw jolları hám onnan paydalanatúǵın qurallardıń jıyındısı esaplanadı. Pedagogikalıq texnologiyanı islep shıǵıwdıń planlastırw dáwirinde bilimlendiriwdıń sol shárayat hám belgilengen

O'qituvchi o'quvchilardan rasmga diqqat qilib qarashni, undagi har bir narsa va holatni sinchkovlik bilan o'qishni o'rgata olishi kerak.

Navbatdagi "Savollarga javob bering" belgisi ostida berilgan oila a'zolari uchun qaysi so'zlar mos kelishi bilan bog'liq topshiriqda o'quvchilar namunada berilgan so'zlarni boboga, buviga, otaga, opaga mos holatda topadilar. Namunadagi so'zlardan tashqari o'zlari ham yangi so'zlar topish sharti o'quvchilarning topqirligi, mulohazakorligi, ijodkorligi kabi xususiyatlarini rivojlantiradi. Bunday turdagi topshiriqlar mazmuni o'quvchilarning yaqinlaridagi fazilatlarini, xislatlarini qadrlashni, anglashni o'rgatadi.

Bo'lim so'ngida rasmga qarab kichik hikoya tuzish topshirig'i berilgan bo'lib, bu vazifa o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmaslik uchun rasm asosida savol-javob suhbatini tashkil qilib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Suhbat jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini bilganlaricha aytib berishlari lozim. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchining fikrini qabul qilishi kerak. Biror o'quvchiga aytgan fikrining noto'g'riligini aytish, boshqa fikr bildirmaslikka sabab bo'lib qolishi mumkin. Suhbatning mazmuni hikoya tuzishda qanday yondashish lozimligini fikr bildirgan o'quvchilar misolida ko'rsatib berish hisoblanadi. Barcha o'quvchilarning hikoyasi bir fikr qolipida bo'lib qolishiga zinhor yo'l qo'yaslik kerak.

Suhbat so'ngida fikrlar umumlashtiriladi va o'quvchilarga hikoya yozishga vaqt beriladi. O'quvchilar bir-nechta gapdan iborat hikoyalarini o'z oila a'zolarini istirok ettirib yozib, partadoshiga o'qish uchun beradi. O'z o'rnida o'zi yonidagi partadoshining hikoyasini o'qib fikrini bildiradi.

O'quvchilarning bir-birlarining hikoyalariga fikr bildirishda har bir aytilgan so'zning o'zni va qiymati o'qituvchi tomonidan qadrlanishi va e'tirof etilishi shart. Shundagina o'qituvchi yana fikr bildirishga oshiqadi. Aksincha, aytilgan fikr ustidan kulish, e'tiborsiz qarash o'quvchilarning fikr bildirish istaklarini bo'g'ib qo'yadi.

vaqt ishinde qoyılǵan maqsetti ámelge asırıw hám planlastırılǵan nátiyjelerge erisiwge sháriyat jaratıwshı usıl hám qurallardıń birligin anıqlap alıw judá zárúr bolıp esaplanadı.